

PAPER

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA IQTISODIY-HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Gafurova Nigora Ilxomovna^{1,*}

¹Qo'qon davlat universiteti stajyor o'qituvchi, tayanch doktorant

* gafurovanigora22@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida talabalar orasida iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, tizimi hamda unga qo'llanilayotgan metod va texnologiyalar ko'rib chiqiladi. Talabalar o'rtasida huquqiy va iqtisodiy ongni rivojlantirish, ularni madaniyat jihatdan mustahkamlash jarayonlari tizimli yondashuv bilan tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqtisodiy-huquqiy bilimlarning integratsion o'qitilishi, konstruktivistik yondashuvning amaliy qo'llanishi va talabalarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirishni ta'minlovchi mexanizmlar yoritilib, takliflar ishlab chiqilgan.

Key words: iqtisodiy-huquqiy madaniyati, pedagogik shart-sharoitlar, talabalarda iqtisodiy va huquqiy ong, konstruktivistik yondashuv, innovatsion metod va texnologiyalar, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, pedagogik tizim samaradorligi, iqtisodiy tafakkur va huquqiy tafakkur, fuqarolik madaniyati.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalari oldida talabalarda iqtisodiy va huquqiy madaniyatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Iqtisodiy-huquqiy madaniyat talabaning iqtisodiy ongini, huquqiy tafakkurini, mas'uliyatini hamda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish pedagogik

tizim, metod va texnologiyalar uyg'unligini talab etadi. Konstruktivistik yondashuv asosida talabalarning mustaqil fikrlashi, iqtisodiy va huquqiy hodisalarga ongli munosabat bildirish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bois, zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik shart-sharoitlar, kompetensiyaga asoslangan metodlar va interaktiv texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy-huquqiy madaniyatni rivojlantirishning muhim mexanizmi hisoblanadi.


Compiled on: December 4, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi – yoshlarni nafaqat bilimli, balki iqtisodiy tafakkuri rivojlangan, huquqiy ong va mas'uliyatga ega, ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati, avvalo, ta'lim muassasalarida yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarga bog'liqdir. Chunki har qanday ta'limiy tizim samarasi unga asos bo'lgan ijtimoiy-pedagogik muhit, metodik yondashuv va tashkiliy omillar uyg'unligida yuzaga chiqadi.

"Pedagogik shart-sharoit" tushunchasi pedagogika fanida turlicha talqin qilinadi. Ba'zi tadqiqotchilar (V.A.Slastenin, N.V.Kuzmina, A.A.Verbitskiy) uni ta'lim jarayonining tashkiliy, metodik, ijtimoiy va psixologik omillar yig'indisi sifatida ko'radi. Boshqalar esa (I.Lerner, L.V.Vygotskiy, J.Dewey) uni o'quvchi shaxsining faol kognitiv rivojlanishiga yordam beruvchi pedagogik muhit sifatida talqin etadi. Umuman olganda, pedagogik shart-sharoit – bu ta'lim maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan maqsadga yo'naltirilgan, tizimli, integratsiyalashgan pedagogik muhitdir.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida talabalarning iqtisodiy-huquqiy madaniyatini shakllantirish masalasi so'nggi yillarda dolzarb yo'nalishlardan biriga aylandi. Chunki iqtisodiy islohotlar va huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayonida yoshlarning iqtisodiy-huquqiy tafakkurini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu jarayonning samaradorligi, o'z navbatida, pedagogik shart-sharoitlarning to'g'ri tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liq (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi pedagogik shart-sharoitlar tizimi

asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

Tashkiliy shart-sharoitlar – oliy ta'lim muassasasining o'quv rejalari, o'quv dasturlari, modullar, fanlararo integratsiya va ta'lim jarayonining modellashtirilgan tuzilmasi.

Didaktik shart-sharoitlar – ta'lim metodlari, interfaol shakllar, konstruktivistik yondashuv, talabani faol ishtirokini ta'minlovchi topshiriqlar tizimi.

Psixologik-pedagogik shart-sharoitlar – o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik, motivatsiya, shaxsga yo'naltirilgan muhit, o'zaro hurmat va ishonch asosidagi ta'limiy aloqa.

Axborot-texnologik shart-sharoitlar – raqamli ta'lim platformalari, elektron resurslar, huquqiy ma'lumot bazalari, iqtisodiy tahlil dasturlari va virtual ta'lim vositalari.

Ijtimoiy shart-sharoitlar – universitetning ilmiy va ma'naviy muhitidagi qadriyatlar, talabalarning fuqarolik faolligini rag'batlantiruvchi tashabbuslar, huquqiy targ'ibot ishlari.

Bu shart-sharoitlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish tizimining poydevorini tashkil etadi. Shu boisdan pedagogik jarayonni tashkil etishda tizimlilik, ilmiylik, integratsiya va shaxsga yo'naltirilganlik tamoyillariga tayangan holda ularni uyg'unlashtirish muhimdir.

Konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, bilim inson tomonidan faol kognitiv jarayonlar orqali yaratiladi. Shu ma'noda, talabalarda iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida o'qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi va mustaqil fikrlashni rag'batlantiruvchi shaxs sifatida ishtirok etishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik shart-sharoitlarni shaxsiy rivojlanish, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'rganish va refleksiya tamoyillariga asoslashni talab etadi.

Demokratik huquqiy davlat hamda faol fuqarolik jamiyatini barpo etish, shuningdek, yangi O'zbekistonni rivojlangan mamlakatlar safidan munosib o'rin egallashga erishish yo'lida yoshlarning iqtisodiy-huquqiy madaniyatini rivojlantirish ustuvor strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki yuksak iqtisodiy-huquqiy madaniyat — jamiyat barqaror taraqqiyotining poydevoridir. Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, uni xalqaro standartlar

Pedagogik shart-sharoitlar tizimi quyidagi

darajasida tashkil etish, har bir fan moduli mazmuniga XXI asr kompetensiyalariga asoslangan integratsion o'quv dasturlarini kiritish bugungi kunning eng dolzarb ehtiyojlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday yondashuv nafaqat ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki yosh avlodni iqtisodiy-huquqiy madaniyat jihatdan yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli hamda zamonaviy dunyo talablariga javob bera oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida erishilgan amaliy tajriba, tizimli islohotlar natijalari hamda jamoatchilik muhokamalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi konseptual hujjat sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur strategiya O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy hayotini yangi bosqichga olib chiqish, barqaror rivojlanish tamoyillarini hayotga joriy etish hamda xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi milliy taraqqiyotning kompleks modeli bo'lib, unda ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy raqobatbardoshlik va inson kapitalini rivojlantirish o'zaro integratsiyalashgan tarzda yoritilgan. Strategiyaning markaziy g'oyalaridan biri – barqaror iqtisodiy o'sish orqali mamlakatni daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga olib chiqishdir. Bu maqsad iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirilishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqamli iqtisodiyot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, strategiyada inson kapitaliga sarmoya kiritish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanib, ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimlarini xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish vazifasi ilgari surilgan. Bu yondashuv inson resurslarining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, aholining hayot darajasini oshirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Natijada, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish modeli sifatida, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barcha bo'g'inlarida modernizatsiya, innovatsiya va samaradorlik tamoyillarini uyg'unlashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan milliy dastur sifatida

e'tirof etiladi.

METODLAR

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning iqtisodiy va huquqiy ongini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun hamda "O'zbekiston–2030" strategiyasida yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, huquqiy savodxonlikni kuchaytirish va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish muhim maqsad sifatida belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishishda oliy ta'lim tizimi markaziy o'rin tutadi. Chunki aynan oliy ta'lim jarayonida talabalar iqtisodiy-huquqiy bilimlarni chuqur o'zlashtirib, ularni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bu jarayonning samaradorligini ta'minlashda tashkiliy va didaktik shart-sharoitlar hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Tashkiliy shart-sharoitlar – bu ta'lim tizimining normativ-huquqiy, moddiy-texnik, kadrlar va ilmiy-metodik asoslarini qamrab oluvchi omillar majmui bo'lsa, didaktik shart-sharoitlar – bu o'quv jarayonining mazmuni, shakli, usuli va vositalarining uyg'un tizimidir.

Oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun quyidagi tashkiliy asoslar muhim ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, ta'lim mazmunining integratsion tuzilishi. Oliy ta'limdagi o'quv rejalari iqtisodiy fanlar (masalan, "Makroiqtisodiyot", "Menejment", "Moliyaviy savodxonlik asoslari") va huquqiy fanlar ("Davlat va huquq nazariyasi", "Fuqarolik huquqi", "Mehnat qonunchiligi") o'rtasida mazmuniy integratsiyani ta'minlashi lozim. Bunday integratsiya talabalarga iqtisodiy munosabatlarni huquqiy me'yorlar bilan uyg'un holda tushunish imkonini beradi. Ikkinchidan, o'quv jarayonining modullashtirilgan shakli. O'quv dasturlarida "Iqtisodiy-huquqiy madaniyat asoslari" yoki "Biznes va huquq madaniyati" kabi modullarni joriy etish zarur. Bu modullar orqali talabalarga iqtisodiy qarorlar qabul qilishda huquqiy me'yorlarni inobatga olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Uchinchidan, o'qituvchilarning malaka va metodik tayyorgarligi. Iqtisodiy va huquqiy fanlarni o'qituvchi pedagoglar integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash, innovatsion metodlarni

tanlash, interfaol muhit yaratish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Shu maqsadda, oliy ta'lim muassasalarida "iqtisod-huquq integratsiyasi bo'yicha malaka oshirish kurslari"ni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, universitetdagi ijtimoiy muhit va hamkorlik aloqalari. Talabalarning iqtisodiy-huquqiy faolligini oshirishda "Yoshlar ittifoqi", "Talabalar kengashi", "Huquqiy bilimlar klubi", "Iqtisodiy startap markazi" kabi tashabbuskor tuzilmalar faoliyatini kengaytirish muhimdir. Ular orqali talabalarda amaliy tajriba, jamoaviy mas'uliyat va fuqarolik ongi shakllanadi. Didaktik shart-sharoitlar - bu ta'lim jarayonida talabaning iqtisodiy-huquqiy bilim, ko'nikma va qadriyatlarini faol shakllantirishni ta'minlovchi didaktik tizimni tashkil etishdir. Ular quyidagi yo'nalishlarda ifodalanadi:

O'qitishning konstruktivistik yondashuvga asoslanishi. Talaba ta'lim jarayonining passiv tinglovchisi emas, balki faol ishtirokchisi bo'lishi kerak. Shu bois, o'qitish jarayonida muammoli vaziyatlar, keys-stadiylar, debatlar, binar darslar va rolli o'yinlar (simulyatsiyalar) dan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, "Mehnat shartnomasidagi huquqiy mas'uliyat" yoki "Startap faoliyatida soliq va huquqiy javobgarlik" mavzularida keyslarni muhokama qilish talabalarni real hayotiy holatlarga tayyorlaydi.

Fanlararo loyihaviy o'qitish tizimini yo'lga qo'yish. Masalan, iqtisod fakulteti talabalari "Huquqiy muhofaza etilgan biznes modeli" loyihasini ishlab chiqish orqali o'z iqtisodiy g'oyalarini huquqiy normalarga mos holda himoya qilishni o'rganadilar. Bunday metod talabalarda iqtisodiy tafakkur va huquqiy mas'uliyatni bir vaqtning o'zida rivojlantiradi.

O'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. "O'quv shartnomasi", "Binar dars", "Debat", "Fishbone", "Konseptual xarita", "Aqliy hujum" kabi metodlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirib, ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Ayniqsa, iqtisodiy-huquqiy mavzular murakkab tushunchalarga boy bo'lgani sababli, bu metodlar tahlil qilish, solishtirish va muhokama qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Raqamli ta'lim muhitini yaratish. O'quv jarayoniga "E-university", "Google Classroom", "Moodle", "Coursera" kabi elektron platformalarni

joriy etish orqali talabalarga huquqiy va iqtisodiy ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatini yaratish zarur. Raqamli vositalar yordamida o'qituvchi va talabalar o'rtasida tezkor teskari aloqa yo'lga qo'yiladi, bu esa ta'lim sifatini oshiradi.

Baholash tizimining kompetensiyaga yo'naltirilgan shakli. Talabalarning bilim darajasini aniqlashda faqat nazariy testlar emas, balki amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari, refleksiya yozuvlari, bahs-munozaralarda ishtirok darajasi kabi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu usul talabaning nafaqat bilimini, balki uning iqtisodiy-huquqiy fikrlash darajasini ham baholash imkonini beradi.

Tashkiliy va didaktik shart-sharoitlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular yagona tizimni tashkil etadi. Tashkiliy jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim jarayoni didaktik samaradorlikni oshiradi, didaktik yondashuv esa tashkiliy muhitning mazmunini boyitadi. Masalan, agar universitetda integratsion modullar joriy etilsa (tashkiliy sharoit), bu modullar interfaol metodlar bilan o'qitilishi zarur (didaktik sharoit).

Shu tarzda shakllantirilgan ta'lim muhiti talabalarni faollikka, ijodkorlikka, iqtisodiy-huquqiy mas'uliyatga undaydi. Bu jarayon natijasida talabalarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy kompetensiyalar - masalan, iqtisodiy qarorlarning huquqiy oqibatini baholash, qonuniy yechim ishlab chiqish, moliyaviy-huquqiy masalalarda mustaqil pozitsiya bildirish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Oliy ta'lim tizimida iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun tashkiliy va didaktik shart-sharoitlarning uyg'un holda mavjudligi zarur. Bu jarayonni quyidagi asosiy yo'nalishlarda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi:

- iqtisodiy va huquqiy fanlar o'rtasida integratsiyani kuchaytirish;
- o'quv jarayonini modullashtirish va loyihaviy yondashuvga asoslash;
- interfaol, refleksiv va raqamli ta'lim metodlarini qo'llash;
- o'qituvchilar malakasini oshirish va metodik hamkorlikni rivojlantirish;
- talabalarning iqtisodiy-huquqiy faolligini ijtimoiy loyihalar orqali rag'batlantirish.

Aynan mana shu tashkiliy va didaktik shart-sharoitlar uyg'un holda amal qilgandagina oliy

ta'lim tizimi iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishda samarali natijalarga erishadi (1-jadval).

1-jadval.
Iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun zarur tashkiliy-pedagogik sharoitlar

Shart-sharoitlar	Amaliy mazmuni	Kutilayotgan natijalar
1.O'quv rejaları va modullar	Iqtisodiy-huquqiy mazmunga ega fanlarni "Iqtisodiy-huquqiy madaniyat asoslari" integratsiyalashgan modullar shaklida tashkil etish.	Iqtisodiy va huquqiy tushunchalarni uyg'un anglash, tizimli fikrlash va integrativ bilim hosil bo'ladi
2.O'qituvchilar malakasini oshirish	Pedagoglarda innovatsion metodlar, iqtisodiy-huquqiy treninglar, debatlar, keys-stadi metodlarini qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish	O'qituvchilarda yangicha pedagogik tafakkur va metodik yondashuv paydo bo'ladi
3.Ta'lim muhiti	Ochiq, interaktiv va raqamli ta'lim muhiti yaratish (onlayn platformalar, axborot bazalari, multimedia resurslari)	Talabalarning mustaqil, tanqidiy fikrlashi va ijodiy faoliyati kuchayadi.
4.Ilmiy-metodik ta'minot	"Iqtisodiy-huquqiy madaniyat" faniga oid metodik qo'llanmalar, keyslar, amaliy topshiriqlar to'plamini yaratish	O'quv jarayonining tizimligi va barqarorligi ta'minlanadi
5.Hamkorlik muhitini yaratish	Universitet, Yoshlar ishlari agentligi, davlat idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, tadbirkorlik subyektlari va mahalla bilan hamkorlikda seminar, loyihalar tashkil etish.	Talabalarda amaliy tajriba, ijtimoiy mas'uliyat hissi shakllanadi va real iqtisodiy-huquqiy muhitni tahlil qiladi.

Активация
Чтобы актив

NATIJALAR

O'zbekiston Oliy ta'lim tizimida iqtisodiy va huquqiy fanlarni o'qitish jamiyatning demokratik va bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot bosqichlarida muhim o'rin tutgan. Ushbu jarayonning tarixiy shakllanishi, hozirgi holati va pedagogik shart-sharoitlarini batafsil yoritish o'rinlidir.

O'zbekiston Oliy ta'lim tizimida iqtisodiy va huquqiy fanlarni o'qitishning shakllanish bosqichlari uch davrga bo'linadi.

Mustaqillikdan keyingi dastlabki davr (1991–2000 yillar). O'zbekiston mustaqillikka erishgach, iqtisodiy va huquqiy sohalarida yangi tizim yaratish, milliy iqtisodiyotni shakllantirish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish zarurati paydo bo'ldi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida "Huquqshunoslik asoslari", "Bozor iqtisodiyoti asoslari", "Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati" kabi fanlar joriy etildi. Mazkur fanlar talabalarda huquqiy ong va iqtisodiy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirildi. 1997-yilgi "Ta'lim to'g'risida" Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida iqtisodiy va huquqiy bilimlarni har

bir mutaxassislikda o'qitish tizimli yo'lga qo'yildi.

Islahotlar va yangilanish davri (2001–2016 yillar). Bu davr O'zbekiston ta'lim tizimida bozor iqtisodiyoti, davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar davridir. Bu davrda iqtisodiy va huquqiy sohalarida yangi tizim yaratish zarurati paydo bo'ldi. Shu bois, iqtisodiy va huquqiy fanlar yangi konseptual mazmunda qayta shakllantirildi. Oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimiga o'tish jarayonlari boshlangan. Fanlar mazmuni zamonaviylashtirilib, iqtisodiyot va huquqning amaliy jihatlariga e'tibor kuchaydi. "Fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari", "Davlat va huquq nazariyasi", "Iqtisodiyot nazariyasi", "Moliya va boshqaruv", "Bozor iqtisodiyoti", "Fuqarolik jamiyati asoslari", "Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Moliya va soliqlar" kabi yangi yoki yangilangan fanlar joriy etildi. Xususan, Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishlarida: "Huquqshunoslik asoslari", "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi", "Bozor iqtisodiyoti asoslari"; Texnika va muhandislik yo'nalishlarida: "Iqtisodiyot va menejment asoslari", "Mehnat huquqi"; Tibbiyot yo'nalishlarida: "Huquqshunoslik asoslari", Tibbiyotda iqtisodiy faoliyat", "Fuqarolik huquqi elementlari"; Qishloq xo'jaligi va agrotehnologiya yo'nalishlarida: "Bozor iqtisodiyoti asoslari", "Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti", "Yer huquqi asoslari"; Iqtisodiyot, menejment va moliya yo'nalishlarida: "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot", "Moliya", "Soliq tizimi", "Iqtisodiy tahlil" va "Tadbirkorlik asoslari"; Huquqshunoslik va davlat boshqaruvi yo'nalishida: "Davlat va huquq nazariyasi", "Fuqarolik huquqi", "Ma'muriy huquq", "Sud-huquq tizimi asoslari"; Filologiya va ijtimoiy-gumanitar fan yo'nalishlarida: "Huquqiy davlat asoslari", "Iqtisodiy madaniyati asoslari"; San'at va madaniyat ta'lim yo'nalishlarida: "Madaniyat iqtisodiyoti" va "Mualliflik huquqi asoslari" fanlari o'qitila boshladi. O'qituvchilarning malakasini oshirish uchun Huquqshunoslik va Iqtisodiyot universitetlarida qayta tayyorlov kurslari tashkil etildi.

Rivojlanish va integratsiya davri (2017–hozirga qadar. Prezident Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan ta'lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish,

raqamli iqtisodiyot, huquqiy madaniyat kabi yo'nalishlar joriy qilindi. 2019-yil 8-oktabrda qabul qilingan "Huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi" va 2020-yildan boshlab "Raqamli iqtisodiyot", "Iqtisodiy xavfsizlik asoslari", "Tadbirkorlik huquqi" fanlari joriy etildi.

2017–2021 yillarga mo'ljallangan oliy ta'limni kompleks rivojlantirish dasturi oliy ta'limda o'quv-ilmiiy baza, kurslar va axborot-kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirishni belgiladi va shu bilan pedagogik va mazmuniiy yangilanishlar boshlangan.

2019–2020-yillardan boshlab Oliy ta'limni 2030-gacha rivojlantirish konsepsiyasi va "huquqiy madaniyatni yuksaltirish"ga oid hujjatlar ta'lim jarayoniga fuqarolik-huquqiy komponentlarni kiritish, umumta'lim bloklari va modul tizimini mustahkamlashni talab qildi.

2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ta'limning maqsadlari, umumiiy pedagogik va fuqarolik kompetensiyalarni shakllantirish talablarini tartibga soldi va shu asosda OTMlarda fuqarolik-huquqiy madaniyat va iqtisodiiy savodxonlik kurslari rasmiylashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar hamda iqtisodiiy va huquqiiy fanlarni samarali o'qitishga qaratilgan quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ko'rishimiz mumkin.

Milliiy ta'lim dasturi: "Inson huquqlari" kursi. Prezident qarori asosida 2023-2024 o'quv yilidan boshlab oliy va professional ta'limda "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari" kabi kurslar joriy etilishi belgilandi. Bu dastur 14 ta hududdagi 114 ta oliy muassasada tatbiq etilishi nazarda tutilgan. Ushbu milliiy darajadagi tashabbus noiqtisodiiy va nomutaxassis OTMlarda ham huquqiiy kurslarning kengayishini ta'minlaydi.

"2024-yil Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi bilan O'zbekistonda yoshlar, ta'lim va biznesga oid bir qancha islohotlar boshlanib, amaliiy choralar ko'rilmogda.

Ta'lim sifatini oshirish maqsadida - maktab, kasb-hunar, oliy ta'lim sohalarida o'quv jarayonlari modernizatsiyasi, chet tili, innovatsiyalar, IT ko'nikmalari kabilarga e'tibor kuchaytirildi. Innovatsiyalar, startaplar, ilm-fan, yosh olimlar va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, davlat tomonidan loyiha, grantlar, mikromoliya imkoniyatlari kengaytirilmogda. Yoshlar bilan

ishlash tizimini takomillashtirish bo'yicha - yoshlar yetakchiligi, "yoshlar daftari", turli yordam va imtiyozlarni taqdim etish, ijtimoiy yordam hamda ma'naviiy-tarbiyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlari olib borilmogda. Xususan, "Yoshlar daftari" orqali ko'rsatiladigan yordam turlari kengaytirildi (30 turga yetdi). "Besh tashabbus olimpiadasi" deb nomlangan yosh tashabbuslarini rag'batlantirish olimpiadalari (mahalla, maktab, kasb-hunar, oliy ta'lim yo'nalishlarida) tashkil etildi (12 millionga yaqin yosh ishtirok etdi). Olimpiadalarda g'olib bo'lgan yoshlar mahallalarida sport maydonchalari qurildi (623 ta maydoncha).

Shuningdek, biznes boshlash, mikromoliya, yosh tadbirkorlarga kredit ajratilishi: Masalan, oilaviy tadbirkorlik dasturida ajratiladigan kreditlarning kamida 40 foiz yoshlar tadbirkorligiga yo'naltirilishi rejalashtirilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston OTMlarida iqtisodiiy va huquqiiy fanlarni o'qitishda quyidagi yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi: iqtisodiiy-huquqiiy madaniyatni shakllantirish-talabaning fuqarolik mas'uliyatini, iqtisodiiy tafakkurini rivojlantirish; fanlararo integratsiya-iqtisodiiyot, huquq, pedagogika, menejment, sotsiologiya, psixologiya fanlari bilan uzviy bog'liq holda o'qitish; raqamli kompetensiyalarni shakllantirish-iqtisodiiy-huquqiiy jarayonlarni raqamli muhitda tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish; amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim - "case study", "muammoli vaziyat", "loyiha ishi" orqali real hayotga yaqin topshiriqlarni bajarish. Bu yo'nalishlardagi faoliyat - talabalarni bozor iqtisodiiyoti sharoitida faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, huquqiiy ongli va iqtisodiiy fikrlovchi shaxs sifatida tayyorlash imkonini beradi.

MUNOZARA. Hozirgi davrda pedagogik ta'lim muassasalarida iqtisodiiy va huquqiiy fanlarni o'qitish jarayoni asosan Oliy ta'lim tizimining iqtisod va huquq yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar doirasida cheklangan. Natijada, boshqa yo'nalishlarda faoliyat yuritayotgan bo'lajak pedagoglarning iqtisodiiy-huquqiiy bilimga bo'lgan ehtiyoji yetarli darajada qondirilmayapti. Bu esa ularning jamiyatda amalda qo'llanilayotgan yoki yangidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiiy hujjatlar bilan tanishish, ularni tahlil qilish hamda amaliiy faoliyatga tatbiq etish qobiliyatining sustlashishiga olib kelmogda. Shu sababli, iqtisodiiy-

huquqiy savodxonlikni faqat tor ixtisoslikdagi fanlar doirasida emas, balki pedagogik ta'lim tizimining barcha yo'nalishlariga integratsiyalash zarurati tug'ilmoqda.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab pedagogik mutaxassislar o'z faoliyatida iqtisodiy va huquqiy jihatlarning o'zaro bog'liqligiga yetarlicha e'tibor qaratmaydi. Natijada ta'lim jarayonida o'quvchilarga iqtisodiy-huquqiy tafakkurni singdirish imkoniyatlari cheklangan bo'lib qoladi. Mazkur holat ta'lim jarayonining mazmuniiy, metodik va tarbiyaviy jihatlarni takomillashtirishda jiddiy to'siq sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim konsepsiyalari — xususan, konstruktivizm, integratsiyalashgan yondashuv va kompetensiyaga asoslangan o'qitish - pedagoglardan o'z fanini ijtimoiy-iqtisodiy kontekstda talqin etishni, har bir mavzuning huquqiy asoslarini ochib berishni talab etadi.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun pedagogik ta'lim tizimida iqtisodiy va huquqiy fanlarning interdisiplinar integratsiyasini kuchaytirish lozim. Har bir fan o'qituvchisi o'z predmetini o'qitish jarayonida iqtisodiy-huquqiy komponentlarni singdirish, o'rganilayotgan mavzularni amaldagi qonunchilik, iqtisodiy siyosat va huquqiy me'yorlar bilan bog'lashga intilishi kerak. Shuningdek, ta'lim dasturlariga "Iqtisodiy-huquqiy madaniyat asoslari" yoki "Huquqiy-iqtisodiy tafakkur" kabi fanlar yoki modullarni kiritish, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar va treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa nafaqat pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshiradi, balki ularning o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy ong va iqtisodiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Oliy o'quv yurtlari talabalarida iqtisodiy va huquqiy madaniyatni shakllantirish tizimini hamda uning samarali faoliyat yuritishi uchun pedagogik shart-sharoitlar majmuasini ishlab chiqish, horijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish va sinovdan o'tkazish bugungi kun zaruriyatidir. Shuningdek, "Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari" faniga "Iqtisodiy - huquqiy madaniyat" kursini integratsiyasini amalga oshirish, fanning dasturini ishlab chiqish va kursni o'qitish natijasida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda talabalarning

o'quv faoliyatida yo'nalish bo'yicha kasbiy bilimlarini shakllantirish zarurdir. Nashr etiladigan "Iqtisodiy-huquqiy madaniyat" o'quv qo'llanmasi talabalarning o'quv faoliyatida o'zini o'zi tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun vaqtini boshqarish texnologiyasidan foydalanishga imkon beradi. O'quv faoliyatida talabalarni fanga tayyorlanishi uchun barcha o'quv - uslubiy materiallar majmuasi ishlab chiqiladi.

Talabalarda iqtisodiy-huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmagani - bu faqat ta'lim tizimidagi muammo emas, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir qiluvchi omildir. Quyida talabaning iqtisodiy-huquqiy madaniyatsizligi natijasida yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlaymiz.

